

INTERYER DIZAYNIDA RANG PSIXOLOGIYASINING AHAMIYATI

Sulaymonova Madina Xudoyshevikur qizi

*Samarqand davlat pedagogika instituti Muhandislik grafikasi**va dizayn nazaryasi mutaxassisligi magistranti**Ilmiy rahbar: Gulnora Maxkamova*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

*Received: 24.12.2025**Revised: 25.12.2025**Accepted: 26.12.2025*

KALIT SO'ZLAR:

*Zamonaviy interyer dizayni,
neytral rang, makon, rang
uyg'unligi, kontrast, ranglar
psixalogiyasi**Ushbu maqolada zamonaviy interyer
dizaynida ranglardan foydalanish
tamoyillari, ularning makon ruhiyatiga
ta'siri, rang uyg'unligi, kontrastligi tahlil
qilinadi. Shuningdek ranglarning inson
psixologiyasiga ta'siri ko'rib chiqilgan*

Bugungi kunda san'at va madaniyatga bo'layotgan talab e'tibor tobora kuchaymoqda. Bu borada Tasviriy va amaliy-bezak san'ati, dizayn sohalarini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qat'iy qonun va farmonlari qabul qilingan. Ularda dizayn, arxitektura sohalarini rivojlantirish, estetik tamoyillarga asoslangan zamonaviy muhit yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli farmonida Tasviriy va amaliy-bezak san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish, "Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash" kabi masalalarga alohida to'xtalgan.

Bugungi kunda zamonaviy interyer dizaynida juda ko'p va turli ranglardan foydalanmoqda. Albatta ushbu ranglar inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Interyer dizaynida ranglar xonaga turli ko'rinish berishda muhim ahamiyatga ega. Ranglar orqali inson o'zini xursand, tinch, tetiklik his qilishi mumkin, shuningdek tanlangan ranglar xonani kengroq, qulayroq ko'rsatadi. Interyerda ranglardan foydalanishda ularning uyg'unligi,

kontrasti va diqqatni jalb qiluvchi joylarda ishlatilishi asosiy sharti hisoblanadi. Shuningdek, rang tanlashda xonaning xususiytaidan kelib chiqib tanlash maqsadlidir. Masalan, yashash xonasi uchun iliq ranglar, ish xonasi uchun diqqatni, fikrni jamlaydigan ranglar afzal ko'riladi.

Interyer dizaynida ranglarning ahamiyati shunchalik muhimki, ular yordamida xona ko'rinishi vizual tarzda kengaytirilishi yoki toraytirilishi, iliq yoki sovuq muhit yaratilishi, hatto insonning ishchanlik faolligi yoki dam olish holatiga mos kayfiyat hosil qilinishi mumkin.

Qadimgi ko'plab xalqlarda dunyoning to'rt tomoniga nisbat berilib, asosiy ranglar sifatida oq, qizil, qora, ko'k rang hisoblangan. Qadimgi Misrda asosiy ranglar deb oltita: qizil, sariq, yashil, ko'k, oq va qora rangni, qadimgi yunonlarda esa to'rt: oq, sariq, qizil, va qorani bilishgan.

Qadimgi yunon faylasufi Empedokl (490–430) asosiy ranglar haqida fikr bildirib, “dunyo to'rt unsur: yer, suv, olov, havodan tashkil topganidek, asosiy ranglar: qizil, sariq, oq va qora rangdan tashkil topadi”, – deya fikr bildirgan.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi Leonardo da Vinchi asosiy ranglar sifatida oltita: sariq, ko'k, qizil, yashil, oq hamda qora ranglari deb hisoblab, ularga quyidagicha ramziy ma'no beradi: oq – yorug'lik, sariq – yer, yashil – suv, ko'k – havo, qizil – olov, qora – tun ramzi deb ta'riflagan. Asosiy ranglar haqida turli fikrlar mavjud bo'lib, har bir kasb egasi o'z sohasidan kelib chiqib fikr bildiradi.

Rang birikmalarining quyidagi to'rt ko'rinishi mavjud: 1) additiv, 2) subtraktiv, 3) fazoviy, 4) qisqa vaqtli birikmalar.

Additiv rang birikmalari tushunchasiga ingliz olimi J.Maksvell asos solib, u 1861-yil birinchi bor uch rang usulida tayyorlangan rangli fotosuratlarini namoyish qiladi. Bu rangli suratlar additiv birikish usulida hosil qilingan edi. Ranglarning additiv birikishi deganda o'zidan yorug'lik taratuvchi manbaalardan chiquvchi rangli nurlarning birikishini anglash kerak. Additiv birikmada asosiy ranglar: ko'k va yashil hisoblanadi. Ranglarning subtraktiv birikuvi amaliy jarayon bilan bog'liq. Subtraktiv birikuvida asosiy ranglar – sariq, qizil va ko'kdan iborat bo'ladi. Additiv birikma singari subtraktiv birikuvlarda ham asosiy ranglardan ikkisining birikishi bilan yangi rang hosil qilinadi.

Oq rang - poklik, soddalik, beg'uborlik ramzi bo'lib, hozirgi zamonaviy interyerlarda oq asosiy fonda juda ko'p qo'llaniladi. Chunki kichik xonalarni kattaroq ko'rsatishda,

minimalistik interyer dizayni yechimlarida tavsiya etilib, neytral rang sifatida barcha turdagi tuslar bilan uyg'unlasha oladi.

Qora rang - ishinch, kuch, jiddiylik, zamonaviylik ramzi. Aksent sifatida zamonaviy interyerlarni yaratishda qo'llaniladi. Interyerda haddan ziyod ko'p ishlatilsa, xonani tor va xiralashtirishi, og'irlik, salbiylik hissini berishi mumkin.

Sariq rangi - quvonch, yorug'lik, ilqlik va energiya, quvnoqlik ramzi hisoblanadi. Interyer muhitida sariq rangdan to'g'ri foydalanish xonani vizual ravishda keng, issiq va yorug'roq ko'rsatadi. Qolaversa, ijobiylik va ijodkorlikni rag'batlantiradi. Ammo juda yorqin sariq ranglar bosh og'rig'ini keltirib chiqaradi.

Qizil rang - eng kuchli va ta'sirchan ranglardan bo'lib, u psixologiyada kuch va energiya, ehtiros va muhabbat, jasorat va qat'iyat ramzi hisoblanadi. Diqqatni tortuvchi va e'tiborni tortishda samarali bo'lishi mumkin. Interyer dizaynida ushbu rangda foydalanish masalan, ofis bezagida foydalanish motivatsiyani oshirishi mumkin, lekin ortiqcha foydalanilsa stressni kuchaytiradi. Shuning uchun me'yorida foydalanish tavsiya etiladi.

Ko'k rang - ishonch, sokinlik va sodiqlik ramzi hisoblanadi. Interyer muhiti (zal va mehmonxona) da foydalanilsa atmosferani sokin, salqin va zamonaviy ko'rinish beradi. Lekin juda qorong'u ko'k tonlar xonani biroz sovuq qiladi.

Yashil rang – tabiat, o'sish, hayot, sog'lik, yangilanish, tinchlik ramzi hisoblanadi. U ko'zga eng qulay ranglardan biri bo'lib, odamni tinchlantiradi, ko'z charchoqlarini kamaytiradi va inson ruhiyatiga xotirjamlik hissini beradi. Agar yashil rangdan xona interyerida me'yorida foydalanilmasa uyquchanlik va energiyaning pasayishiga olib keladi.

Hozirgi kunda zamonaviy interyer dizaynida eng ko'p qo'llaniladigan ranglar oq va sariq ranglarning tuslari, moviy ranglardir. Chunki ular neytral rang hisoblanib, inson kayfiyatiga sokinlik kayfiyatini beradi. Och tusdagi moviy rang yotoqxonalar uchun tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lib, koridorlar uchun esa och tuslu ko'k mos keladi. Och jigarrang esa uyga qulaylik va issiqlik beradi va bugungi kunda ofis, zal va mehmonxonalarni bezashda ishlatiladi. Oq rang tozalik kenglik tasirini yaratgani uchun universal rang hisoblanadi. Minimalizm uslubidagi uy interyeri uchun oq rang mukammal yechim bo'lishi tayin. Shu bilan birga mazkur rang kichikroq xonalarni kattaroq ko'rsatish xususiyatiga ega va xonangizga musaffo ko'rinish bag'ishlaydi. Kulrang esa neytral rang bo'lib, muvozanat rangi hisoblanadi. Kulrang xotirjamlik, mo'tadillik, xavfsizlik va yetuklikni ifodalaydi. Ushbu rangdan bugungi kunda, o'quv markaz, maktab xonalari, yotoqxonalarda ham uchratishingiz mumkin.

Zamonaviy interyer dizaynida ranglarda to'g'ri foydalanish insonga nafaqat estetik go'zallik yaratadi, balki insonning ruhiyati, qulaylik darajasi va umumiy muhit sifatida ham bevosita rol o'ynaydi. Rang tanlash jarayonida biz ularning o'zaro uyg'unligi, yorug'lik miqdori, xonaning vazifasi va uslubiga har tomonlama mos kelishi zarur. Yorqin va neytral ranglarning muvozanati, kontrast ranglardan samarali foydalanish, tabiiy va pastel tonlarga ustuvorlik berish zamonaviy dizaynning asosiy tamoyillardan biridir. Interyer dizaynida quydagi ranglardan foydalanish maqsadga muvofiq: Minimalizm, modern, loft uslublarida oq va sariq ranglarning tushlari foydalanish xonaga nafis, issiq va yorug'lik beradi. Bundan tashqari xonani juda shinam ko'rsatadi va klassik-zamonaviy uyg'unlik beradi. Yashil rangning tushlaridan tinch muhit yaratishda foydalanish mumkin. Ushbu ranglar tinchlik, sokinlik, stressni kamaytiradi. To'q moviy+oq+jigarranglar kuchli zamonaviy ko'rinish beradi. Bu ranglar juda zamonaviy va muhtasham ko'rinish beradi.

Umuman olganda ranglar bilan ongli ishlash interyerga jon bag'ishlab, xonani funksional, qulay va zamonaviy ko'rinishga keltiradi. Shunday ekan dizaynda rang tanlash ijodiy yondashuv va ilmiy asoslangan qarorlar uyg'unligini talab etadigan eng muhim jarayonlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF60-son Farmoni.
2. Sabirov M.M. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2021 y.
3. Karimov U.N. Husenov B. J." Interyer dizaynida rang ta'limining qo'llanilish tamoyillari" Maqola 2025
4. <https://elleuzbekistan.com>